

## **“Ixtirochilikka qadam” tanlovining birinchi (maktab) bosqichining baholash MEZONI**

“Ixtirochilikka qadam” tanlovining (keyingi o‘rinlarda - tanlov) maktab bosqichi barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy yilning **24-25-26-oktabr kunlari** o‘tkaziladi. Bu bosqichda har bir jamoa yoki individual ishtirokchi o‘z maktablarida loyihalarini taqdim etadi. Maktab bosqichi uchun belgilangan baholash mezonlariga muvofiq, eng yaxshi deb topilgan loyiha muallifi (mualliflari) tanlovning tuman (shahar) bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

### **Tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:**

- tanlov ishtirokchilari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, jumladan, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar, davlat va nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-11-sinf o‘quvchilari bo‘lishi lozim;

- tanlovda har bir jamoa (*3 nafardan oshmagan*) yoki individual ishtirokchilar **ixtirochi.piima.uz** sayti orqali joriy yilning **20-oktabr** sanasiga qadar onlayn ro‘yxatdan o‘tishlari talab etiladi;

- ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ishtirokchilar o‘zlari tanlagan loyiha haqida qisqacha tavsif, maqsadlar, foydalanilgan texnologiyalar va kutilayotgan natijalar haqida ma’lumotlarni kiritishlari zarur;

- ma’lumotlar matni 150 ta so‘zdan oshmasligi lozim;

- bir jamoa yoki individual ishtirokchi bir loyiha bilan ishtirok etishi lozim.

### **Tanlov loyihalariga qo‘yiladigan talablar:**

- taklif etilayotgan loyihalar ta’lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida bo‘lishi lozim;

- taklif etilayotgan loyiha asosida yangi mahsulot yoki xizmat turini yaratish asosiy ustuvorlikka asoslanishi lozim;

- taklif etilayotgan loyihani amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha aniq takliflar bo‘lishi lozim;

- taklif etilayotgan loyihani amaliyotga tatbiq etishdan kutilayotgan natijalar aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

- tanlovda har bir jamoa yoki individual ishtirokchiga loyihani himoya qilish uchun **7 daqiqa** vaqt ajratiladi. Bu vaqt davomida jamoalar o‘z loyihalarini taqdim etishlari, loyiha haqida gapirishlari va savollarga javob berishlari kerak.

- loyihani taqdim etishda taqdimot materiallari 12 varaqdan oshmasligi hamda qisqa, mazmunli va aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi zarur.

- loyiha taqdimotida loyihaning texnk xususiyatlari yoritilgan bo‘lishi kerak.

**Tanlovning birinchi (maktab) bosqichi quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:**

<b>T/r</b>	<b>Loyihaga qo‘yilgan talablar bo‘yicha baholash mezonlari</b>	<b>Ballar darajasi</b>	<b>Umumiy qo‘yiladigan maksimal ball</b>
1	<p><b>Loyihaning tanlov yo‘nalishlariga mos mavzuda tayyorlangani</b></p> <p>Loyiha tanlovning yo‘nalishlariga mos kelishi. Bu ko‘rsatkich orqali loyiha o‘quvchining tanlovga to‘g‘ri tayyorlanganligini, tanlangan mavzuni qanday tushunganligini ko‘rsatadi. Loyiha tanlov yo‘nalishlariga aniq mos bo‘lib, qiziqarli va dolzarb muammolarni hal qilsa yuqori ball beriladi.</p>	<p><b>1-4 ball:</b> Loyiha tayyorlangan, lekin tanlov yo‘nalishlariga mos kelmagan, asosiy maqsad va mavzu aks ettirilmagan.</p> <p><b>5-8 ball:</b> Loyiha qisman tanlov yo‘nalishlariga mos, ammo dolzarb masalalarni yetarlicha qamrab olmagan.</p> <p><b>9-12 ball:</b> Loyiha tanlov yo‘nalishlariga mos, lekin loyiha faqatgina umumiy mavzularni qamrab olgan.</p> <p><b>13-15 ball:</b> Loyiha tanlov yo‘nalishlariga to‘liq mos, qiziqarli va dolzarb muammolarni yechishga qaratilgan.</p>	<b>15 ball</b>
2	<p><b>Innovatsion va ijodiy yondashuv</b></p> <p>Ishtirokchilarning loyiha yaratishda ijodiy yondashganligi, an’anaviy yondashuvlardan chiqib, innovatsion g‘oyalar qo‘llaganligi.</p> <p>Innovatsion yechimlar va yangi texnologiyalar qo‘llangan loyihalarga yuqori ball beriladi.</p>	<p><b>1-5 ball:</b> Loyiha ijodiy yondashuvni o‘z ichiga olmaydi, odatiy usullar qo‘llanilgan.</p> <p><b>6-10 ball:</b> O‘quvchi ijodiy yondashgan, lekin yangi texnologiyalar yoki innovatsion yondashuvlar yetarlicha ko‘rsatilmagan.</p> <p><b>11-15 ball:</b> Loyihada ijodiy elementlar mavjud, lekin ularning ko‘lami keng emas.</p>	<b>20 ball</b>

<b>T/r</b>	<b>Loyihaga qo‘yilgan talablar bo‘yicha baholash mezonlari</b>	<b>Ballar darajasi</b>	<b>Umumiy qo‘yiladigan maksimal ball</b>
		<b>16-20 ball:</b> Loyihada yuqori darajada ijodiy, innovatsion texnologiyalar va original yondashuvlar qo‘llangan.	
3	<p><b>Loyiha taqdimotida loyihaning texnik jihatdan sifatli va puxta yoritilganligi</b></p> <p>Loyiha taqdimotida loyiha ishining ishtirokchilar tomonidan texnik jihatdan sifatli va puxta yoritilganligi. Loyiha texnik jihatdan to‘g‘ri va sifatli yoritilgan bo‘lsa, yuqori ball beriladi. Agar texnik xatoliklar bo‘lsa, pastroq ball beriladi.</p>	<p><b>1-4 ball:</b> Texnik jihatdan sust yondashilgan yoki yarim tayyor loyiha, ko‘plab xatoliklar mavjud.</p> <p><b>5-8 ball:</b> Ishtirokchilarning texnik ko‘nikmalari qisman namoyon bo‘lgan, ammo ba’zi xatoliklar mavjud.</p> <p><b>9-12 ball:</b> Loyiha texnik jihatdan sifatli yoritilgan, lekin ba’zi elementlar hisobga olinmagan.</p> <p><b>13-15 ball:</b> Loyiha texnik jihatdan mukammal, yoritilgan.</p>	<b>15 ball</b>
4	<p><b>Taqdimot va tushuntirish</b></p> <p>Loyiha taqdimotining sifatli tayyorlanganligi va ishtirokchi tomonidan yaxshi tushuntirilishi. Barcha berilgan talablar asosida tayyorlanganligi. Ishtirokchilar tomonidan loyihaning asosiy mazmuni sodda va tushunarli tarzda yoritilishi, savollarga aniq javob bera olishi. Taqdimot jarayonida o‘zini tutishi, qiziqarli, mahoratli tushuntirishi</p>	<p><b>1-8 ball:</b> Taqdimot talablar asosida tayyorlanmagan, loyihani tushuntirish murakkab yoki chalkash.</p> <p><b>9-16 ball:</b> Loyihani tushuntirishda qiyinchiliklar bo‘lgan, savollarga to‘g‘ri va aniq javob berilmagan.</p> <p><b>17-22 ball:</b> Taqdimot mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri tayyorlangan, loyihaning asosiy mazmunini yoritib bera</p>	<b>30 ball</b>

T/r	Loyihaga qo'yilgan talablar bo'yicha baholash mezonlari	Ballar darajasi	Umumiy qo'yiladigan maksimal ball
	va vaqt reglamentiga to'liq rioya qilishi yuqori ball bilan baholanadi.	<p>olgan va vaqt reglamentiga to'liq rioya qilingan, ammo ishtirokchilar savollarga to'liq javob bera olmagan.</p> <p><b>23-30 ball:</b> Taqdimot aniq va tushunarli, loyihaning asosiy mazmuni yoritib berilgan, vaqt reglamentiga to'liq rioya qilingan, savollarga to'liq va aniq javob berilgan.</p>	
5	<p><b>Loyihani amalga oshirishda kutilayotgan natijalar</b></p> <p>Loyihaning real muammolarni hal qilishga yoki mavjud jarayonlarni yaxshilashga qo'shadigan hissasi, loyihaning texnik va iqtisodiy jihatdan amalga oshirish imkoni mavjudligi, loyihaning mavjud analog (shunga o'xshash mahsulot)laridan afzalligi baholanadi.</p>	<p><b>1-5 ball:</b> Loyiha real muammolarni hal qilishga yo'naltirilmagan yoki kutilayotgan natijalar mavhum.</p> <p><b>6-10 ball:</b> Loyiha real muammolarni qisman hal qilishga yo'naltirilgan, ammo loyiha texnik va iqtisodiy jihatdan amalga oshirilishi qiyin.</p> <p><b>11-15 ball:</b> Loyiha real muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan, texnik va iqtisodiy jihatdan amaliyotga tadbiiq etish imkoni mavjud, lekin mavjud analoglaridan yetarlicha afzallikka ega emas.</p> <p><b>16-20 ball:</b> Loyiha real muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan, texnik va iqtisodiy jihatdan</p>	<b>20 ball</b>

<b>T/r</b>	<b>Loyihaga qo'yilgan talablar bo'yicha baholash mezonlari</b>	<b>Ballar darajasi</b>	<b>Umumiy qo'yiladigan maksimal ball</b>
		amaliyotga tadbiq etish imkoni mavjud, mavjud analoglaridan afzalliklarga ega.	
	<b>Jami</b>		<b>100 ball</b>